TIJORAT BANKLARINING INVESTISION KREDIT QO‘YILMALARI HAJMIGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR

Ergashova Nilufar Sobirovna
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti, mustaqil izlanuvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.16753306

ANNOTATSIYA

Maqolada tijorat banklarining investitsiya va kredit salohiyati, tijorat banklari investitsiya va kredit oqimlarining o‘sish sur’atlariga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilingan, bank sektorining investitsiya siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari, iqtisodiyotda texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, bank tizimining kredit salohiyatidan samarali foydalanish, xorijiy mamlakatlar banklari bilan sindikatlashtirilgan kreditlar hisobiga investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni amalga oshirish, banklar uchun qimmatli qog‘ozlar bozoriga yo‘naltirilgan investitsiyalardan olinadigan bevosita va bilvosita daromadlar va boshqa iqtisodiy muammolar ko‘rib chiqilgan.

KALIT SO‘ZLAR

Milliy iqtisodiyot, tijorat bank tizimi, bank resurslari, bank depozitlari, investitsiya loyihasi, investitsiya kreditlari, sindikatlashtirilgan kredit, subordinatsiyalangan kredit, qimmatli qog‘ozlar, modernizatsiya, daromadlilik.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется инвестиционный и кредитный потенциал коммерческих банков, факторы, влияющие на темпы роста инвестиционно-кредитных потоков коммерческих банков, рассматриваются меры по совершенствованию инвестиционной политики банковского сектора, развитие технологического производства в экономике, модернизация отраслей

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Национальная экономика, коммерческая банковская система, банковские ресурсы, банковские депозиты, инвестиционный проект, инвестиционные кредиты, синдицированный кредит, субординированный кредит, ценные бумаги, модернизация, доходность.

промышленности, эффективное использование кредитного потенциала банковской системы, реализация финансирования инвестиционных проектов за счет синдицированных кредитов с банками зарубежных стран, прямые и косвенные доходы от инвестиций, направляемых на рынок ценных бумаг для банков, и другие экономические проблемы.

ABSTRACT

The article analyzes the investment and credit potential of commercial banks, factors influencing the growth rate of investment and credit flows of commercial banks, considers measures to improve the investment policy of the banking sector, the development of technological production in the economy, the modernization of industries, the effective use of the credit potential of the banking system, the implementation of financing investment projects through syndicated loans with banks in foreign countries, direct and indirect income from investments directed to the securities market for banks, and other economic problems.

KEYWORDS

National economy, commercial banking system, banking resources, bank deposits, investment project, investment loans, syndicated loan, subordinated loan, securities, modernization, profitability.

Hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida barqarorsizlik davom etayotgan davrda mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, uning raqobatbardoshlilik darajasini oshirish muhim iqtisodiy masala hisoblanadi. Shu sababli iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnologik yangilash jarayonlarini tezlashtirish lozim. Bank sektorini tubdan transformatsiya qilish maqsadida 2020-yil 12-mayda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli Farmoni qabul qilindi[1]. Ushbu masalalarni

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli Farmoni

ijobiy hal qilish uchun mamlakatimizda asosiy hisoblanadigan tijorat banklarining investisiya faoliyatini rivojlantirish zarur.

Hozirgi vaqtda tijorat banklarining investisiya va kredit salohiyatini shakllantirish va ulardan foydalanish shartlari murakkabdir. Jahon moliyaviy inqirozi bank sektorida xatarlarning sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Bunday sharoitda kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan bank resurslari hajmini aniqlash muhim ahamiyatga ega bo‘lib, kredit salohiyatidan to‘liq foydalanmaslik bank operatsiyalari rentabelligini pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga kredit potensialidan ortiq kredit operatsiyalarini amalga oshirish likvidlik muammolarining paydo bo‘lishiga olib keladi[2].

Milliy iqtisodiyotning faol rivojlanishi ishlab chiqarish jarayonlarini tiklashga yordam beradigan, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini modernizatsiyalash hamda yangi korxonalarni shakllantirishga yo‘naltiriladigan investisiya resurslarini tobora ko‘proq investisiyalashni talab qilmoqda.

Shuni ta’kidlash kerakki, 2021-2024-yillarda O‘zbekiston hukumati olib borgan iqtisodiyotni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq choralarga qaramasdan iqtisodiyotni moliyalashtirishning asosiy qismi korxonalarining asosiy donorlari bo‘lgan tijorat banklari zimmasiga tushdi. Biroq, mahalliy banklarning tashqi va ichki faoliyatining bir qator o‘ziga xos xususiyatlari tufayli ular iqtisodiyotning muhim va uzoq muddatli mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojlarini qoplay olmaydi.

Bugungi kunda moliyaviy investisiyalar korxonalar tomonidan asosan o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirilmoqda. Ammo amaliyot shuni ko‘rsatadiki, korxonalar uchun investisiyalarni o‘z ichki manbalari-rivojlanish fondlari, emissiya resurslari hisobidan o‘zini o‘zi moliyalashtirish yetarli emas. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotga kiritilgan sarmoyalarning asosiy ulushi uzoq muddatli resurslarga ega bo‘lgan investisiya va pensiya fondlari, sug‘urta kompaniyalari hissasiga to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston sharoitida ular kam rivojlanganligi sababli investisiya jarayonida asosiy o‘rin tijorat banklari zimmasiga tushadi.

Banklarning investisiya faoliyati – bu bank investor sifatida daromad olish maqsadida moliyaviy aktivlarni sotib olishi, real aktivlarni yaratishi va tashkil qilishi uchun mablag‘larni joylashtirishi bilan bog‘liq faoliyatidir. Banklarning investisiya faoliyatining boshqa investorlar faoliyatidan farqli tomoni shundaki, ular investisiyani jalb qilingan mablag‘lar evaziga amalga oshiradilar. Shuning uchun ham bank bir tomondan investor sifatida bozorda paydo bo‘lsa, boshqa tomondan esa u qarzdordir. Ushbu holat banklar uchun likvidlilikni muhim masala qilib

[2]О.В.Васильев.Формирование и оценка инвестиционно-кредитного потенциала коммерческих банков в условиях финансовой нестабильности тема диссертации Москва 2011 г 187с

qo‘yadi hamda ular aktivlar va passivlarining muddati, hajmi va foiz stavkalari bo‘yicha mutanosib boshqarishni taqozo etadi[3].

Mamlakatimiz tijorat banklari resurs bazasining birinchi qismi kapitaldan iborat bo‘lsa, ikkinchi qismi esa depozitlardan iborat. Investisiya-kredit jarayonida o‘rta va uzoq muddatli investisiyalarni taqdim etishga qodir banklar rolini ortib borishi, shuningdek banklar resurs bazasini shakllantirishning murakkab shart-sharoitlari hamda unga ta’sir etuvchi omillar tijorat banklarining investision-kredit salohiyatini o‘rganish zaruriyatini belgilab berdi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda zamonaviy bank xizmatlarini rivojlantirish asosida tijorat banklari raqobatbardoshligini oshirish borasida keng ko‘lamli islohatlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son farmoniga muvofiq rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining ikkinchi ustuvor yo‘nalishi doirasida “Mamlakatimizning investisiyaviy jozibadorligini yanada oshirish, bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish, tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay sharoitlar yaratish uchun istiqbolli investisiya loyihalari hamda mikro moliyalashtirishni yanada rivojlantirish” vazifalari belgilandi[4].

Yuqoridagi ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlashda respublikamiz tijorat banklarini investisiya va kredit salohiyatini boshqarishning zamonaviy usullarini joriy etish hamda banklarni investisiya va kredit potensialini shakllantirishning ta’sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi. Banklar uchun eng qiyin to‘siq uzoq muddatli resurs bazasini shakllantirish va kapitallashuvning pastligi bo‘lib, bu banklarning mamlakatimiz korxonalari va aholisini yetarli darajada sarmoyaviy va kredit resurslari bilan ta’minlay olmasligiga olib kelmoqda.

Yana bir muhim muammo – bank tizimining kredit salohiyatidan samarali foydalanish va kreditlashning yangi shakllarini rivojlantirishdir. Inqiroz davridan keyingi yillarda keng tarqalgan kreditlashning turli usullari kredit risklarining sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Hozirgi vaqtda investisiya va kredit salohiyatini shakllantirishga amaliy yondashish va uning hajmiga ta’sir etuvchi barcha mumkin bo‘lgan omillarni hisobga olgan holda baholashning uslubiy asoslarini ishlab chiqish zarur ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu sohaning dolzarbligi kredit tashkilotlari faoliyati samaradorligini va iqtisodiyotning real sektorida investisiya resurslarining multiplikativ ta’sirini oshirishga qaratilgan investisiya va kredit salohiyatini shakllantirish konsepsiyasini ishlab chiqishdadir.

Ushbu muammoni hal qilish uchun quyidagi vazifalar talab qilinadi:

[3] Dodiyev F.U. Tijorat banklarining investisiya faoliyatini rivojlantirish yo‘llari. Banklar va moliya bozorlari jurnali. 7 bet.
[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli Farmoni

- uslubiy yondashuv asosida bankning resurs bazasi hamda likvidlilik va zahiralar bilan bog‘liqligi o‘rtasidagi farqlar orqali tijorat bankining investisiya va kredit salohiyatining mohiyatini ochib berish orqali investisiya va kredit salohiyati bilan bankning resurs bazasi o‘rtasidagi yaqin aloqani aniqlash;

- kredit tashkilotlari faoliyati samaradorligini va iqtisodiyotning real sektorida investisiya resurslarining multiplikativ samarasini oshirishga qaratilgan investisiya va kredit salohiyatini boshqarish konsepsiyasini ishlab chiqish;

- bankning investision-kredit salohiyatini belgilovchi pul, fond va kredit bozorlarining holati, majburiy zahiralar darajasi va majburiy zahiralardan foydalanish tartibi kabi omillarni aniqlash;

- yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha bankning kredit hamda investisiya siyosatini va investisiya loyihalarini uzoq muddatli kreditlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, buning asosida bankning uzoq muddatli resurs bazasini mustahkamlash kabilardan iborat.

Taraqqiy etgan mamlakatlar banklarining investision faoliyatining asosiy qismi sindisiyalashtirilgan kreditlar berish amaliyotining hissasiga to‘g‘ri keladi. Mamlakatimizda ham tijorat banklari sindisiyalashtirilgan kredit berish amaliyotini keng yo‘lga qo‘yishlari lozim, bu ularning investisiya faoliyatini rivojlantiradi va uni boshqarishni takomillashtiradi. Chunki bunda yirik loyihalarni moliyalashtirish va boshqarishda bir qator banklar birgalikda ishtirok etadilar, risklar bo‘linadi va resurslar birlashtiriladi[5].

Yirik investisiya loyihalarini xorijiy davlatlar banklari bilan birgalikda sindisiyalashtirilgan kreditlar berish orqali moliyalashtirishni amaliyotga joriy qilish lozim. Bu loyihalarni moliyalashtirish bilan bog‘liq risk darajasini pasaytiradi va ularni ekspertiza qilishda xorij tajribasini o‘rganish imkonini beradi.

Respublikamizdagi banklar iqtisodiyot tarmoqlaridagi investisiya loyihalarini moliyalashtirishga turli budjetdan tashqari fondlar va sug‘urta kompaniyalari mablag‘larini faol jalb qilishlari lozim. Chunki bularning mablag‘larining aksariyat qismi uzoq muddatli bo‘lib, ularni investisiya loyihalarini moliyalashtirishga transformatsiya qilish banklarda likvidlilik muammosini keltirib chiqarmaydi. Shuningdek, yirik hajmda valyuta ko‘rinishidagi moliyaviy mablag‘lar jamlangan O‘zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘larini tijorat banklariga samarali investisiya loyihalarini moliyalashtirishlari uchun subordinar qarz (subordinar qarz — bu bankning qarz majburiyatlari shakli bo‘lib, bank kapitalini aniqlash maqsadida hisob-kitoblardan so‘ng I darajali kapitalning uchdan bir

[5]Karimov N.G., Razzaqov J.X. Investision loyihalarni sindikatli kreditlar hisobiga moliyalashtirishning tashkiliy va huquqiy asoslarini takomillashtirish “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, 2019 y.

qismidan oshmasligi kerak) ko‘rinishida berishni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimiz hududlarida faoliyat ko‘rsatayotgan xo‘jalik sub’yektlarining aksariyati kichik korxonalar bo‘lib, ular o‘z investisiya loyihalarini moliyalashtirishlari uchun bank kreditlaridan foydalanishlariga to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillardan biri ta’minot masalasi hisoblanadi. Buni ijobiy hal qilish uchun, birinchidan, tijorat banklari korxonalar investisiya faoliyatini moliyalashtirish maqsadida lizing amaliyotlari hajmini oshirishlari lozim. Ikkinchidan, respublikamizda kreditlarni kafolatlash fondini jahon tajribasi va milliy xususiyatlarimizni hisobga olgan holda tashkil qilinishi kerak.

Aholining banklardagi omonatlarini inflyasiya natijasida qadrsizlanishidan himoya qilish maqsadida xorij tajribasidan foydalanish lozim. Shuningdek, aholi uchun depozitlar jozibadorligini oshirish uchun ularning muddatini oshirish bilan stavkalarini ko‘tarish banklarning barqaror resurs bazasini mustahkamlaydi. Natijada banklarning investisiya qilish imkoniyatlari kengayadi.

Rivojlangan mamlakatlarda moliya bozorining rivojlanishi munosabati bilan tijorat banklari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlarni sotishdan olingan mablag‘lar ularning umumiy resurslarida sezilarli darajada yuqori ulushni egallaydi. Ushbu manbalar asosan banklarning uzoq muddatli investisiya operatsiyalarini moliyalashtirish uchun ishlatiladi. Rivojlangan mamlakatlarning bank amaliyotida qimmatli qog‘ozlarga investisiyalar investisiya faoliyatining muhim tarkibiy qismidir.

Qimmatli qog‘ozlar bozoriga yo‘naltirilgan investisiyalar banklarga bevosita va bilvosita daromad keltiradi. Bank bevosita daromadlarni dividend va foiz ko‘rinishda yoki keyinchalik qimmatli qog‘ozlarni ikkilamchi bozorda qayta sotishdan olingan foyda shaklida oladi. Bilvosita daromad bozor ulushini oshirish va ularning aksiyalariga egalik qilish orqali korporativ boshqaruvdagi ta’sirni oshirish orqali olinadi. Bilvosita daromad bozor ulushini oshirish va ularning korporativ boshqaruvdagi aksiyalariga egalik qilish ta’sirni oshirish orqali olinadi.

Zamonaviy sharoitda eng ishonchli va likvidli investisiya vositalari savdo tashkilotchisi (birja) talablariga javob beradigan va listing prosedurasidan o‘tgan qimmatli qog‘ozlar hisoblanadi. Biroq, uyushgan fond birjasida sotiladigan barcha vositalar yetarli darajada yuqori likvidlilik darajasiga ega emas va ular savdo kunining istalgan vaqtida sotilishi mumkin. Bu fond bozori yetarli darajada yuqori moliyaviy salohiyatga ega emasligi, investision resurslarning yetishmasligi, investorlar yetishmasligi, kapitallashuvning pastligi bilan bog‘liq. Fond birja bo‘limlari ishini tashkil etishning bunday sharoitlarida Markaziy bank mablag‘larini qayta moliyalash operatsiyalari orqali jalb qilishni ta’minlovchi vositalargina likvid hisoblanganligi uchun bunday qimmatli qog‘ozlar tijorat bankining kreditga

layoqatliligini ta’minlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Markaziy bank kredit tashkilotlarining likvidligini ta’minlash uchun repo operatsiyalarini amalga oshiradi va qimmatli qog‘ozlar bilan taminlangan kreditlarni joylashtiradi. Lombard ro‘yxatiga kiritilgan vositalar garov sifatida qabul qilinadi. Lombard ro‘yxatini shakllantirishda Markaziy bank ma’lum investisiya vositalarining jozibadorligiga bevosita ta’sir qiladi. Tijorat banki uchun muhim investisiya parametri xisoblangan kimmatli qog‘ozlarning ishonchli ro‘yxati shakllantiriladi.

So‘nggi bir necha yil ichida statistik ma’lumotlarga ko‘ra, banklarning investisiya va kredit operatsiyalari manbai bo‘lgan jalb qilingan uzoq muddatli resurslar ulushi ortib bormoqda. Bu holat O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan, mamlakatimiz aholisining bank tizimiga bo‘lgan ishonchini oshirishga qaratilgan siyosatning natijasidir.

O‘z o‘rnida, iqtisodiyotda tarkibiy islohotlarning faol davom ettirilishi, investision loyihalar samaradorligining ortishi va xususiylashtirish jarayonlarining jadallashishi hisobiga o‘rta muddatli istiqbolda ichki ishlab chiqarish hajmining ortishiga mutanosib ravishda import hajmining ham o‘sib borishi kutilmoqda. Import hajmining 2020-yil - 12,8% foiz, 2021-yil 20,5% foiz, 2022-yil 20,3% foiz, 2023-yil 24% foiz atrofida o‘sishi kuzatildi.

Buning natijasida to‘lov balansining joriy operatsiyalar hisob varag‘i manfiy saldosi YAIMga nisbatan saqlanib qoldi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiyalarning kutilayotgan oshishi hamda qarz mablag‘larining jalb etilishi mazkur manfiy tafovutni moliyalashtirishning asosiy manbalaridan bo‘ldi. Bunda pul-kredit siyosatining nisbatan qat’iy sharoitlarining saqlanib qolishi va iqtisodiyotda inflyasiyaning pasayib borishiga mos ravishda doimiy real foiz stavkalarining ta’minlanishi iqtisodiyotda ichki xususiy va tashqi investisiyalar barqaror oshishi uchun zarur fundamental sharoit yaratdi.

1-jadval.

Makroiqtisodiy rivojlanishning asosiy ssenariysi (foizda)

Ko‘rsatkichlar	**Asosiy ssenariy** (yillik o‘sish foizda)			
	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
Yillik inflyasiya darajasi	11,1%	10%	12,3%	8,8%
YAIM real o‘sishi	1,7%	7,4%	5,7%	6,3%
Eksport hajmi o‘sishi (oltinsiz)	-25,6%	34,6%	21,6%	26,1%
Import hajmi o‘sishi	-12,8%	20,5 %	20,3%	24%

Kredit qo‘yilmalari qoldig‘i o‘sishi	34,3%	18,4%	21,4%	23,3%

Manba: *Markaziy bank ko‘rsatkichlari*

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining kredit va investisiya salohiyatini shakllantirish omonatlarning barqarorligini ta’minlash, mijozlarning bankdan pul mablag‘larining chiqib ketishining oldini olishga qaratilgan bo‘lishi kerak, bu esa kredit tashkilotiga ishonchni saqlashni ta’minlaydi. Tijorat banklarining investisiya va kredit potensialini oshishi iqtisodiyotimizning barqaror o‘sishiga ijobiy ta’sir qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 24.01.2020
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli Farmoni.
4. О.В.Васильев Формирование и оценка инвестиционно-кредитного потенциала коммерческих банков в условиях финансовой нестабильности те диссертаци на соискание кандидата экономических наук. М. 2011 г. 187 с.
5. Dodiyev F.U. Tijorat banklarining investisiya faoliyatini rivojlantirish yo‘llari. Banklar va moliya bozorlari jurnali. 7 bet.
6. Karimov N.G., Razzaqov J.X. Investision loyihalarni sindikatli kreditlar hisobiga moliyalashtirishning tashkiliy va huquqiy asoslarini takomillashtirish “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, 2019 y.
7. Бузаева О. А. Управление инвестиционной деятельностью коммерческих банков: Основные направления // Научно-методический электронный журнал «Концепт».–2017. Т. 18. С. 1–7. – URL: http://e-koncept.ru/2017/770376.htm.
8. Abdullayeva Sh. “Bank ishi”. Darslik. T.:Moliya, 2012. S. 184.
9. Жаббаров Э. Моделирование показателей производительности труда в хлопчатобумажной промышленности Ташкент. Мехнат 1986-г.113 с.
10. Ergashova N.S. Iqtisodiyotni rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarning o‘rni va ahamiyati. International scientific and practical conference “Science, education and innovation: solutions and prospects problems” 2024 4 bet.

11. Эргашова Н.С. Значение современных актуальных вопросов экономики окружающей среды International conference on analysis of mathematics and exact sciences Volume 01, Issue 01, 2024 c. 6.
12. cbu.uz.-O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki internet sayti.